



DIRECTIONS TO REDUCE ECONOMIC DISADVANTAGE AND ENSURE SUSTAINABLE ACTIVITIES OF ECONOMIC ENTITIES

Bo'riyeva Gulnoza Inat qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Buxgalteriya Fakulteti

Biznes tahlil yo'nalishi talabasi

@gulnozaburiyeva2005@gmail.com

Abstract

This article analyzes in depth the factors leading to economic disadvantage of business entities, mechanisms for ensuring their financial stability and directions to reduce the risk of poverty. Aspects such as maintaining economic balance, risk management, rational use of internal and external resources of the enterprise, the effectiveness of state support mechanisms are highlighted. The article provides a justification for innovative management approaches for enterprises, factors to increase competitiveness, financial recovery strategies, and modern methods of crisis management. The article presents practical recommendations to strengthen economic stability of economic entities, effective organization of their activity and competitiveness in market conditions.

Keywords: Economic entities, economic disadvantage, financial stability, risk management, economic security, innovative management, wellness strategy, crisis management.

Introduction

Annotatsiya

Mazkur maqolada xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy nochorlikka uchrashiga olib keluvchi omillar, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmlari hamda nochorlik xavfini kamaytirish yo'nalishlari chuqur tahlil qilingan. Iqtisodiy muvozanatni saqlash, risklarni boshqarish, korxonaning ichki va tashqi resurslaridan oqilona foydalanish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi kabi jihatlar yoritilgan. Shuningdek, korxonalar uchun innovatsion boshqaruv yondashuvlari, raqobatbardoshlikni oshirish omillari, moliyaviy sog'lomlashtirish strategiyalari hamda inqirozga qarshi boshqaruvning



zamonaviy usullari asoslab berilgan. Maqola natijalari xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, ularning faoliyatini samarali tashkil etish va bozor sharoitida raqobatbardoshligini ta’minlash uchun amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, iqtisodiy nochorlik, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish, iqtisodiy xavfsizlik, innovatsion boshqaruv, sog‘lomlashtirish strategiyasi, inqirozga qarshi boshqaruv

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning barqaror faoliyat yuritishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy kafolatlaridan biri hisoblanadi. Korxonalarning iqtisodiy nochorligi – moliyaviy ko‘rsatkichlarning pasayishi, to‘lovga layoqatsizlik, resurslardan foydalanish darajasining yetarli emasligi va boshqaruvdagi tizimli muammolar bilan bog‘liq murakkab jarayondir. Ushbu muammo korxonalar faoliyatining izdan chiqishiga, ishlab chiqarish hajmlarining qisqarishiga va eng asosiysi, iqtisodiy xavfsizlikning pasayishiga olib keladi. Shuning uchun ham iqtisodiy nochorlikni oldini olish, uni kamaytirish va barqaror faoliyatni ta’minlash bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlar ishlab chiqish dolzarb masaladir. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda inqirozga qarshi choralarni kuchaytirishga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, “Bankrotlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri, 2022-yil) xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning iqtisodiy nochorligini aniqlash mezonlari, sudgacha sog‘lomlashtirish tartibi, tashqi boshqaruv va tugatish jarayonlarini huquqiy jihatdan tartibga solib berdi. Shuningdek, korxonalarni qo‘llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlari Prezidentning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 5-maydagi PF-5984-son Farmoni va iqtisodiy o‘lishni ta’minlashga qaratilgan boshqa qarorlar orqali mustahkamlandi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” farmonida korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik sub’ektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, iqtisodiy



xavfsizlikni ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va ularning bozor talablariga moslashuvchanligini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mazkur hujjatlar davlat tomonidan iqtisodiy nochorlikning oldini olish, moliyaviy sog'lomlashtirish mexanizmlarini qo'llash va korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha samarali yondashuvlar taklif etilayotganidan dalolat beradi. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda korxonalar o'z ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish, resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, risklarni samarali boshqarish va moliyaviy sog'lomlashtirish strategiyalarini ishlab chiqish zaruratiga duch kelmoqda. Iqtisodiy nochorlikni erta aniqlash, uning salbiy oqibatlarini kamaytirish va barqaror faoliyatni ta'minlovchi mexanizmlarni shakllantirish ilmiy jihatdan ham, amaliyot nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy nochorligini kamaytirish, moliyaviy va tashkiliy barqarorligini mustahkamlash, shuningdek, bozor sharoitida samarali faoliyat yuritish imkonini beruvchi yo'nalishlarni chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy nochorligi va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash masalasi iqtisodiyot fanida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biridir. Jahon iqtisodiy adabiyotida A.Altman, E.I.Altman tomonidan ishlab chiqilgan Z-indeks modeli, Beaver (1966)ning korxonalarda to'lovga layoqatsizlikni prognozlash bo'yicha ishlari, J.Ohlsen (1980) tomonidan taklif etilgan logit modellari korxonalar iqtisodiy nochorligini erta aniqlashning ilmiy asosini yaratgan. Iqtisodiy nochorlikning asosiy sabablari sifatida moliyaviy ko'rsatkichlarning pasayishi, aktivlar yetishmasligi, noprofessional boshqaruv, tashqi bozor sharoitlaridagi o'zgarishlar va likvidlikning kamayishi ta'kidlanadi.

O'zbekiston olimlari orasida ham korxonalarning barqaror faoliyatini ta'minlash masalalari keng yoritilgan. Xususan, R.X. Alimov, A.V. Vakhobov, N.T. Toshmatov, S.G'. Abdullaevning ilmiy ishlari moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy xavfsizlik, korxonalarni sog'lomlashtirish mexanizmlariga bag'ishlangan bo'lib, ularda iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi omillar, moliyaviy tahlil usullari va boshqaruv qarorlarining ahamiyati yoritilgan.



Normativ-huquqiy jihatdan, O‘zbekiston Respublikasining “Bankrotlik to‘g‘risida”gi Qonuni (2022-yil), “Tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlash to‘g‘risida”gi Qonun, Prezidentning PF-60 (2022-yil) Farmoni — Taraqqiyot strategiyasi, PQ-5411 (2021-yil) qarori — iqtisodiyotni raqamlashtirish va boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar kabi hujjatlar korxonalarining iqtisodiy nochorligini kamaytirishga qaratilgan davlat siyosatining asosiy manbalari hisoblanadi. Ushbu hujjatlar korxonalar moliyaviy sog‘lomlashtirish tartibi, davlat ko‘magini kuchaytirish, raqobat muhiti va boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishga oid normalarni o‘z ichiga oladi.[1;4-5b]

Umuman, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy nochorlikning oldini olish uchun korxonalar faoliyati ustidan muntazam monitoring olib borish, moliyaviy ko‘rsatkichlarga asoslangan baholash tizimlarini qo‘llash, innovatsion boshqaruv yondashuvlaridan foydalanish hamda davlat tomonidan yaratilayotgan qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlarni samarali joriy etish muhimdir.

Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar iqtisodiy nochorligini kamaytirish va barqaror faoliyatini ta‘minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlarni aniqlashni maqsad qilgan. Ushbu jarayonda quyidagi metodlar va ilmiy yondashuvlar qo‘llaniladi:

1. Tahliliy-metodik yondashuv: Korxonalarining iqtisodiy holatini baholash uchun moliyaviy ko‘rsatkichlar tahlili, likvidlilik, rentabellik, moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Altman Z-indeksi, likvidlik koeffitsientlari va iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari qo‘llandi.
2. Solishtirma tahlil: Nochor va barqaror korxonalar o‘rtasidagi farqlar aniqlash maqsadida solishtirma tahlil metodidan foydalanildi. Bu usul orqali resurslardan foydalanish samaradorligi, boshqaruv tizimi, xatarlarni boshqarish darajasi taqqoslab o‘rganildi.
3. Normativ-huquqiy tahlili: Korxonalar faoliyatiga oid O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, farmon va qarorlari mazmunan tahlil qilindi. “Bankrotlik to‘g‘risida”, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligi”, “Korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish” ga oid me‘yorlar ilmiy asoslangan holda o‘rganildi.
4. Statistik tahlil: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank ma‘lumotlari asosida korxonalar faoliyatiga doir amaliy ma‘lumotlar tahlili amalga oshirildi. Statistik ko‘rsatkichlar orqali iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi omillar aniqlab borildi.



5. Ilmiy umumlashtirish: Tahlillar asosida iqtisodiy nochorlikni kamaytirish, moliyaviy sog'lomlashtirish, barqaror faoliyatni ta'minlashning samarali mexanizmlari umumlashtirilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

6. Tizimli yondashuv: Korxona faoliyati makro, mezo va mikro darajada o'rganilib, iqtisodiy nochorlikka ta'sir qiluvchi omillar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Bu yondashuv kompleks xulosalar chiqarishga imkon berdi.

1-jadval “Artel Electronics” MCHJ moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlili

Ko'rsatkichlar	Me'yoriy daraja	2022-yil	2023-yil
Joriy likvidlik koeffitsienti	$\geq 1,5$	1,3	1,7
Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	$\geq 0,5$	0,46	0,58
Qarzdorlik darajasi	$\leq 0,6$	0,65	0,52
Sof foyda rentabelligi (%)	$\geq 10\%$	8,5	13,2

Tahlil:

Jadval ma'lumotlariga ko'ra 2022-yilda korxonada ayrim moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari me'yoriy darajadan past bo'lgan. 2023-yilda esa moliyaviy sog'lomlashtirish choralari natijasida likvidlik va rentabellik ko'rsatkichlari yaxshilangan.

2-jadval Korxonada iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi asosiy omillar

Omillar	Tavsifi	Ta'sir darajasi
Aylanma mablag'lar yetishmasligi	Qisqa muddatli majburiyatlar yuqoriligi	Yuqori
Import xomashyo ulushi	Valyuta kursi ta'siri	O'rta
Xarajatlar nazoratining sustligi	Ishlab chiqarish tannarxining oshishi	Yuqori

Ushbu jadvalda korxona faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim moliyaviy omillar ifodalangan. Jumladan, aylanma mablag'lar yetishmasligi qisqa muddatli majburiyatlarning yuqoriligi bilan bog'liq bo'lib, korxona likvidligiga yuqori darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Import xomashyo ulushining mavjudligi valyuta kursi o'zgarishlariga bog'liqlikni kuchaytirib, ishlab chiqarish xarajatlariga o'rta darajada ta'sir etadi. Shuningdek, xarajatlar nazoratining sustligi ishlab chiqarish tannarxining oshishiga olib kelib, korxona moliyaviy natijalariga yuqori darajada ta'sir ko'rsatishi bilan tavsiflanadi.



3-jadval “Artel Electronics” MCHJda iqtisodiy nochorlikni kamaytirish choralari

Yo‘nalish	Amalga oshirilgan choralar	Natija
Moliyaviy boshqaruv	Ichki audit kuchaytirildi	Xarajatlar 12% ga kamaydi
Risklarni boshqarish	Valyuta risklari sug‘urtalandi	Barqarorlik oshdi
Innovatsiya	Raqamli boshqaruv tizimi	Samaradorlik oshdi
Davlat qo‘llovi	Soliq imtiyozlari	To‘lovga layoqatlilik yaxshilandi

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Artel Electronics” MCHJ faoliyatida iqtisodiy nochorlik xavfini kamaytirishda moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, risklarni tizimli boshqarish va innovatsion yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu choralar korxonaning barqaror rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR:

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning iqtisodiy nochorlik darajasiga ta’sir etuvchi omillar, moliyaviy ko‘rsatkichlari va boshqaruv tizimining samaradorligi chuqur tahlil qilindi. Olingan asosiy natijalar quyidagilarni tashkil etdi:

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, korxonalarda iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- mablag‘lar aylanishining sekinlashuvi va likvidlikning pasayishi;
- qarzdorlik yukining oshishi va majburiyatlarni vaqtida bajarolmaslik;
- boshqaruv tizimining yetarlicha optimallashtirilmaganligi;
- resurslardan foydalanishdagi samarasizlik;
- bozor talablarining o‘zgaruvchanligiga moslashishning sustligi.

Tajriba sifatida o‘rganilgan barqaror va nochor korxonalar o‘rtasida:

- ✓ jami aktivlarning rentabelligi (ROA) 2,5 baravar
- ✓ jami kapitalning rentabelligi (ROE) 1,8 baravar
- ✓ jadal likvidlik koeffitsienti esa o‘rtacha 40–45% farq qilishi kuzatildi.

Bu esa korxonalarning istiqbollari to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy boshqaruv sifatiga bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Tahlil qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar — PF-60-son Farmon, “Bankrotlik to‘g‘risida”gi Qonun (2022), PQ-5411 kabi qarorlar:



-
- sogʻlomlashtirish jarayonlarini tezlashtirishi,
 - korxonalarga soliq imtiyozlari berilishi,
 - davlat kafolatlari asosida kreditlardan foydalanish imkoniyatini oshirishi amalda samarali natija berayotganini koʻrsatdi.

Analitik tahlil natijalariga koʻra, risklarni erta aniqlash, moliyaviy xavfsizlik koʻrsatkichlarini kuzatish va boshqaruvda innovatsion yondashuvlardan foydalanish iqtisodiy nochorlik xavfini 35–40% gacha kamaytirishi mumkin.

Korxonalar uchun amal qila oladigan quyidagi yoʻnalishlar asoslandi:

- raqamlashtirilgan moliyaviy tahlil tizimlarini joriy etish;
- resurslardan samarali foydalanish modeli;
- innovatsion boshqaruv usullari;
- xatarlarni baholashning integratsiyalashgan tizimi;
- ichki audit tizimini kuchaytirish.

Xoʻjalik yurituvchi subʼektlarda iqtisodiy nochorlikning vujudga kelish jarayoni, unga taʼsir qiluvchi ichki va tashqi omillar hamda barqaror faoliyatni taʼminlash mexanizmlari keng muhokama qilindi.

Natijalar shuni koʻrsatadiki, korxonalar koʻpincha iqtisodiy nochorlikka duch kelganidan soʻng choralar koʻradi. Ammo erta diagnostika — likvidlik, rentabellik, qarzdorlik koʻrsatkichlarini monitoring qilish oʻz vaqtida choralar koʻrishga imkon beradi. Bu tajriba rivojlangan davlatlar tajribasida ham oʻz isbotini topgan. Oʻzbekistonda iqtisodiy islohotlarning jadalligi, xususan:

- ✧ soliq yukini kamaytirish,
- ✧ tadbirkorlar uchun kreditlar boʻyicha kafolatlar berish,
- ✧ bankrotlikning oldini olish boʻyicha tartiblarni takomillashtirish
- ✧ korxonalarning iqtisodiy holatini yaxshilashda sezilarli rol oʻynaydi.

Metodik tahlil natijalariga koʻra:

- ✓ notoʻgʻri investitsiya siyosati,
- ✓ rejasiz xarajatlar,
- ✓ risklarni baholashning sustligi,
- ✓ ichki nazorat tizimining yoʻqligi

korxonalarni tezda iqtisodiy nochor holatga olib kirishini koʻrsatdi. Bu holat mavjud ilmiy adabiyotlardagi xulosalar bilan hamohangdir. PQ-5411 qarorida belgilanganidek, korxonalar faoliyatini raqamlashtirish:



- samaradorlikni,
- tezkor tahlil imkoniyatini,
- bozor talabiga moslashuvchanlikni oshiradi.

Shu bois raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish eng asosiy tavsiyalardan biri sifatida qayd etildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy nochorligi kompleks va ko'p omilli hodisa bo'lib, uning yuzaga kelishida moliyaviy ko'rsatkichlarning pasayishi, boshqaruvdagi kamchiliklar, bozor talablarining o'zgaruvchanligi, raqobat muhitining kuchayishi hamda resurslardan foydalanishdagi samarasizlik asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy nochorlikning o'z vaqtida aniqlanmasligi korxonalar faoliyatining izdan chiqishiga, barqarorlikning keskin pasayishiga va iqtisodiy xavfsizlikning zaiflashishiga olib kelishini tahlillar tasdiqladi. Mahalliy va xorijiy adabiyotlar, amaliy tajriba hamda statistika ma'lumotlari shuni anglatadiki, korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish, resurslardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish, ichki audit tizimini rivojlantirish hamda raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu omillar iqtisodiy nochorlik xavfini kamaytiradi va korxonalarning uzoq muddatli istiqbolida samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonun (2022-yil), PF-60-son Farmon, PQ-5411 qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatdiki, davlat tomonidan korxonalarni qo'llab-quvvatlash, sog'lomlashtirish jarayonlarini takomillashtirish, soliq va kredit imtiyozlari berish orqali iqtisodiy nochorlikning oldini olish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Ushbu hujjatlar korxonalarning barqaror faoliyati uchun zarur bo'lgan institutsional asoslarni yaratib, ularning rivojlanishiga strategik ko'mak bermoqda. Shuningdek, korxonalar iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda kompleks yondashuv zarur: moliyaviy tahlil, boshqaruvni optimallashtirish, innovatsiyalarni joriy etish, risklarni boshqarish, marketing strategiyasini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni qo'llash birgalikda qo'llanganda yuqori samaradorlikka erishiladi. Umuman olganda, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy nochorligini kamaytirish va barqaror faoliyatini ta'minlashning ilmiy asoslangan yo'nalishlarini asoslab berdi. Taklif etilgan



mexanizmlar amaliyotga joriy etilganda, korxonalarning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi, iqtisodiy xavfsizlik darajasi oshadi va ularning bozor sharoitida raqobatbardoshligi kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Bankrotlik to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2022. 4-5b
2. O‘zbekiston Respublikasi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlash to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2017. 6b
3. PF-60-son Farmon. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. – Toshkent, 2022.
4. PQ-5411-son Qarori. “Iqtisodiyotda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Toshkent, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari to‘plami. – Toshkent: Adolat, 2022.
6. Altman E. I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // The Journal of Finance. – 1968.
7. Beaver W. Financial Ratios as Predictors of Failure // Journal of Accounting Research. – 1966.
8. Ohlson J. A. Financial Distress Prediction Model // Journal of Accounting and Economics. – 1980.
9. Vakhobov A. V., Alimov R. X., Toshmatov N. T. Korxonalar iqtisodiyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
10. Abdullaev S. G‘. Korxonalar moliyaviy barqarorligi va uni oshirish yo‘llari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
11. Boshqaruv hisobi va tahlil: o‘quv qo‘llanma / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDIU, 2020.
12. Statistika qo‘llanmasi. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. – Toshkent, 2023.
13. Xalqaro buxgalteriya standartlari bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2022.